O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JIZZAX VILOYATI JIZZAX SHAHAR HOKIMI QARORI

2024 - yil 19 - mart 100-3-55-Q/24 Jizzax shahar hokimligi

Jizzax shahar hududida harakat xavfsizligini ta’minlash va fuqarolar bilan bog‘liq yo‘l-transport xodisalarini oldini olish maqsadida taqiqlovchi belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarorlarining ijrosini ta’minlash hamda Jizzax viloyat IIB jamoat xavfsizligi xizmati yo‘l harakati boshqarmasining 2024-yil 20-yanvardagi 10/6-103-sonli va 2024-yil 29-yanvardagi 10/6-1086-sonli xatlari hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 5-, 6- va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarorlarining ijrosini ta’minlash hamda Jizzax viloyat IIB jamoat xavfsizligi xizmati yo‘l harakati boshqarmasining 2024-yil 20-yanvardagi 10/6-103-sonli va 2024-yil 29-yanvardagi 10/6-1086-sonli xatlari ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Jizzax shahar hududida yo‘l harakati ishtirokchilariga qulay harakatlanish sharoitlarini yaratish va tirbandliklarni bartaraf qilish maqsadida quyidagilar amalga oshirilsin:

2.1.“Sayiljoyi” MFY Istiqlol ko‘chasida joylashgan Aksiyadorlik tijorat bank “Asakabank Jizzax filiali” binosi ro‘parasidan Sharof Rashidov shoh ko‘chasi kesishmasigacha:

2.2. Istiqlol ko‘chasining Sharof Rashidov shoh ko‘chasi bilan tutashgan yo‘l qismidan “Jizzaxlik” MFY hududida joylashgan 1-sonli oilaviy poliklinika hududiga qadr;

2.3. Sharof Rashidov shoh ko‘chasida joylashgan “Ishonch” savdo markazi ro‘parasidan Shifokorlar ko‘chasi kesishmasiga qadar;

2.4. Shifokorlar ko‘chasining Sharof Rashidov shoh ko‘chasi bilan tutashgan yo‘l qismidan “Imkon” savdo markazi binosi ro‘parasiga qadar;

2.5. Gavhar ko‘chasining Sharof Rashidov shoh ko‘chasiga tutashgan yo‘l qismidan “ASIASHCOL” maktabi binosiga qadar;

2.6. Sharof Rashidov shoh ko‘chasida O‘zbekiston pochtasi Jizzax filiali binosi ro‘parasidan viloyat hokimligi binosining avtoturagohiga kirish joyiga qadar;

2.7. Sharof Rashidov shoh ko‘chasida joylashgan Jizzax davlat pedogogika universiteti hududidagi tibbiyot instituti ma’muriy binosi ro‘parasidan “Yangi Zebo” savdo majmuasi avtotuargohiga kirish yo‘lagiga qadar;

2.8. “O‘ratepalik” MFY hududida joylashgan Jizzax shahar Favqulodda vaziyatlar bo‘limining “Yong‘in xavfsizligi xizmati” va O‘zbekiston Respublikasi IIV Jizzax viloyati “Dinamo” jismoniy tarbiya sport jamiyati Kengashi binosi hamda Jizzax Politexnika instiutining 2-o‘quv binolariga olib boruvchi ko‘chada sababsiz holatda transport vositalarining qolidirb ketilishining olidini olish maqsadida 3.27 “To‘xtash taqiqlangan” yo‘l belgilari o‘rnatilsin.

2.9. Jizzax shahar “Zilol” MFY va Sharof Rashidov tumani **“**Qo**‘**shko**‘**prik” MFY hududlari cheagarasidan o**‘**tuvchi A.Бурхонов ko**‘**chasining Mustaqillik ko**‘**chasiga tutashgan joyidagi ko**‘**p qavatli binolar oralig**‘**idagi tirbandliklarning oldini olish maqsadida 3.27 **“**To**‘**xtash taqiqlangan” yo**‘**l belgilarini o**‘**rnatish.

3. Jizzax shahar ko‘chalarida yuk avtomobillarining harakatlanishini taqiqlash orqali viloyat markaziy ko‘chalarining ta’mirlangan qatnov qismini navbatdagi ta’mirlash muddatiga qadar saqlanishini ta’minlash maqsadida Jizzax shahar Sharof Rashidov shoh ko‘chasining H.Do‘stligi, Toshkent va Mustaqillik ko‘chalari bilan kesishgan chorrahasidan Shifokorlar ko‘chasiga qadar bo‘lgan oralig‘ida 3.4 “Yuk avtomobillarining harakatlanishi taqiqilangan” va **7.2.2 “Ta’sir oralig‘i”** yo‘l belgilarini o‘rnatilsin.

4. Shahar ichki ishlar boshqarmasi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi (B.Abullayev), shahar Obodonlashtirish boshqarmasi (G‘.Axmedov)ga shahar hududidagi ko‘chalarda ikki tomoniga belgilangan tartibda yo‘l belgilari o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

5. Shahar moliya bo‘limi (A.Abdujalilov)ga yo‘l belgilarini o‘rnatish xarajatlari uchun mahalliy budjetdan mablag‘ ajratilib berish vazifasi topshirilsin.

6. Mazkur farmoyishning ijrosini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari X.Onalbayev zimmasiga yuklatilsin.

Shahar hokimi **K.Xolmurodov**